



BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2022- YIL
YANVAR-IYUN**

2022- yilning yanvar-iyun oyida, Buxoro viloyatida jami **4 121,4** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **101,8 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor

15,4

32,4

52,2


Yirik korxona va
tashkilotlar

Kichik korxona
va mikrofirmalar

**2022- yil 1- iyul holatiga
ko‘ra qurilish ishlari
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar, birlikda**



Yillar kesimida soni



**Bino va inshootlar
qurish**

1 762


**Fuqarolik obyektlarini
qurish**

348

**Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari**

819

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o‘zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda o’sish sur’ati 102,6 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagи yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 60,2 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,6 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 11,9 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 136,5 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 29,9 foiz ulushni va 92,8 foiz o’sish sur’atini tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o‘tgan yiliga nisbatan, % da
	01.07.2021- y.	01.07.2022- y.	
Buxoro viloyati	2 855	2 929	102,6
Buxoro shahri	952	948	99,6
Kogon shahri	115	129	112,2
<i>tumanlar:</i>			
Olot	75	79	105,3
Buxoro	229	227	99,1
Vobkent	123	123	100,0
G’ijduvon	193	198	102,6
Kogon	143	145	101,4
Qorako’l	114	109	95,6
Qorovulbozor	53	56	105,7
Peshko‘	156	181	116,0
Romitan	230	256	111,3
Jondor	234	236	100,9
Shofirkon	238	242	101,7



**2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra
Buxoro viloyatida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, % da**




Buxoro sh. (32,4)



Romitan t. (8,7)



Shofirkon t. (8,3)



Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyun uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	4 121,4	633,3	2 153,9	1 334,2
Buxoro sh.	894,7	79,8	594,3	220,6
Kogon sh.	245,1	152,3	71,5	21,3
tumanlar:				
Olot	279,5	79,2	87,9	112,4
Buxoro	307,6	11,7	178,8	117,1
Vobkent	110,9	-	48,0	62,9
G'ijduvon	384,6	0,4	172,7	211,5
Kogon	307,5	47,9	156,2	103,4
Qorako'l	176,5	3,4	81,6	91,5
Qorovulbozor	227,7	149,9	64,5	13,3
Peshku	259,5	-	160,4	99,1
Romitan	383,3	94,1	150,3	138,9
Jondor	241,0	-	164,0	77,0
Shofirkon	303,5	14,6	223,7	65,2


 2022- yilning yanvar-iyun oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 633,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning mos davriga nisbatan 82,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 3,2 % punktg'a kamayib, 15,4 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2022- yil yanvar-iyun uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 65,9 % i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 84,8%), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 62,1% i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 164,8 %), ga to'g'ri keldi.

2022- yilning yanvar-iyun oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,2% i to‘g‘ri kelib, 2021- yil yanvar-iyun ko‘rsatkichiga nisbatan 1,4 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,6% ni tashkil etgan holda 2 153,9 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



52,2

2022-yil
Yanvar-iyun

50,8


2021- yil
Yanvar-iyun



MA’LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Shofirkon tumanida (223,7 mlrd. so‘m yoki 73,7 %), Jondor tumanida (164,0 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 68,0%) va Buxoro shahrida (594,3 mlrd. so‘m yoki 66,4 %) va ga to‘g‘ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 32,4 % ni tashkil etdi yoki 1 334,2 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,2 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 258,4 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 3 863,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,3 % va 93,7 % ni tashkil etdi.



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **66,8** % i yoki **2 751,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

10,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **296,8** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **10,8** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 256,1** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **45,6** % ni tashkil etdi.

45,6 %

43,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 198,8** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **43,6** % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyun oyida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Buxoro viloyati	4 121,4	101,8	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	894,7	95,1	21,7
Kogon sh.	245,1	130,7	5,9
<i>tuman:</i>			
Olot	279,5	106,2	6,8
Buxoro	307,6	101,3	7,5
Vobkent	110,9	108,7	2,7
G'ijduvon	384,6	101,7	9,3
Kogon	307,5	96,7	7,5
Qorako'l	176,5	114,6	4,3
Qorovulbozor	227,7	95,6	5,5
Peshko'	259,5	117,2	6,3
Romitan	383,3	82,5	9,3
Jondor	241,0	112,9	5,8
Shofirkon	303,5	115,8	7,4



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

12,3

2021- yil
Yanvar-iyun

8,8

41,7

42,7

46,0

48,5

2022- yil
Yanvar-iyun



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 8,8 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyundagi ko'rsatkichga nisbatan 3,5 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko'payib, 42,7 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,5 % punktga ko'payib, 48,5 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,5 % ni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-iyunga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 79,5 % (0,9 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari
2021- yil yanvar-iyun




Kichik korxona
va mikrofirmalar

Norasmiy
sektor

2022- yil
yanvar-iyun

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,2 % punktga kamaydi va 45,1 % ni tashkil etdi. Qolgan 54,9 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,9 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyun


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	4 121,4	2 751,3	918,4	451,7
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	894,7	599,8	221,7	73,2
Kogon sh.	245,1	179,1	51,9	14,1
<i>tuman:</i>				
Olot	279,5	155,2	44,6	79,7
Buxoro	307,6	225,2	60,1	22,3
Vobkent	110,9	82,1	20,2	8,6
G'ijduvon	384,6	306,1	55,6	22,9
Kogon	307,5	203	79,5	25
Qorako'l	176,5	128,5	31,7	16,3
Qorovulbozor	227,7	56	67,4	104,3
Peshko'	259,5	185,2	54,2	20,1
Romitan	383,3	275,1	91,5	16,7
Jondor	241,0	162,6	55,8	22,6
Shofirkon	303,5	193,4	84,2	25,9



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyun



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyun uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2 077,8	100,3
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	3 138,1	94,0
Kogon sh.	3 909,7	128,6
<i>tuman:</i>		
Olot	2 747,9	104,9
Buxoro	1 781,0	99,5
Vobkent	770,1	107,1
G'ijduvon	1 229,3	100,1
Kogon	3 777,3	94,8
Qorako'l	1 051,3	113,0
Qorovulbozor	11 857,8	92,6
Peshko'	2 041,5	115,2
Romitan	2 611,3	81,1
Jondor	1 340,6	111,2
Shofirkon	1 664,8	113,9



**Hududlar kesimida aholi jon boshiga
qurilish ishlari
2022- yil yanvar-iyun uchun**



Hududlar kesimida 2022- yil yanvar-iyun oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 11 857,8 ming so'm (yoki, 2021-yilning mos davriga nisbatan 92,6 %), undan keyin mos ravishda Kogon shahri – 3 909,7 ming so'm (yoki 128,6 %), Kogon tumani— 3 777,3 ming so'm (yoki 94,8 %), Buxoro shahri – 3 138,1 ming so'm (yoki 94,0 %), Olot tumani – 2 747,9 ming so'm (yoki 104,9 %) egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**